



DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudov Xudoyorxon Jamol o'g'li

TDIU 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat boshqaruvi tizimida soliq ma'murchiligi tahlil qilingan bo'lib. Shuningdek, davlat tomonidan samarali soliq islohotlarini amalga oshirish buyicha taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq ma'murchiligi, soliq islohotlari, budget soliq siyosatida soliq ma'murchiligining o'rni, budget siyosati, budget.

Bilamizki soliq ma'murchiligini rivojlantirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish imkoniyati yaratilib, budget soliq siyosatini amaliyotga tadbiiq etish shart sharoitlari yaratiladi hamda budgetga samarali soliq yig'implari shaklanishiga olib keladi. Shuningdek bugungi kunda ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar soliq ma'murchiligiga katta e'tibor qaratayotgani sir emas. Sababi davlat byudjeti daromadlarini shakllanishida soliqlarning ahamiyati katta bo'lib huddi shu soliqlarning to'liq yig'ilishida hamda o'z vaqtida davlat budgetiga kelib tushushi uchun ham soliq ma'murchiligini rivojlantirish asosiy omillardan biridir.

Mamlakatimiz soliq tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lib, undagi o'zgarishlar albatta soliq ma'murchiligiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. 2023 yil yakuni bo'yicha mamlakatda YaIM pragnoz holati 5,3% ga o'sishi rejalashtirilmoqda, yillik inflyatsiya so'rati esa 9,5% atrofida bo'lishi kutilmoqda. Mamlakatni rivojlantirish har bir sohani taraqqiy etish orqali amalga oshirilib 2022 yil hamda 2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarga muvofiq ravishda, samarali budget soliq siyosatini amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilangan:


1. Budget siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyani rivojlantirishga
2. Hududlar, ayniqsa mahallalarning dolzarb muammolarini hal qilish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, atrof muhitni va tabiatni muhofaza qilishni ta'minlash
3. Yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab quvvatlashni kengaytirish



4. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatida sof raqobat muhitini yaratilishiga zamin yaratish, bosqichma-bosqich soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish

5. Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga budjet mablag'laridan samarali foydalanish yuzasidan javobgarligi, hisobdorligi va vakolatlarini, davlat budjeti barqarorligini ta'minlash maqsadida, ilg'or xorijiy tajribadan hamda xalqaro moliya institutlari ekspertlarining tavsiyalaridan kelib chiqqan holda budjet xarajatlari samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida O'RQ-813 sonli qonuni tasdiqlanib unga ko'rsa 2023 yil uchun davlat budjeti daromadlari **232,1 trln so'm**, xarajatlari esa **227,9 trln so'm** miqdorida transfer ajratilishi rejalashtirilmoqda.



1-Rasm, O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan budjetining jamlanma parametrlari pragnoz ko'rsatkichlari(mlrd.so'mda)¹

Yuqoridagi ma'lumotga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatda iqtisodiy samaradorlikni taminlamasdan soliq ma'murchiligida islohatlarni amaliyotga to'g'ri tadbiiq eta olmaymiz. Ko'rinib turibdiki konsolidatsiyalashgan budjet mablag'lari yilga yilga oshmoqda, bu albata mamlakat iqtisodiyotda tovar va hizmatlarning hajmi oshayotganidanidan, pul bazasining kengayib YaIM hajmi ham ko'payotganidan dalolat bermoqda.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bu adolatli va samarali soliq tizimini ta'minlashning asosiy omilidir. Davlat boshqaruv tizimida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish usullaridan biri texnologiyaga asoslangan

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.12.2022 yildagi O'RQ-813-sonli qonuni ilovasi ko'rsatkichlariga muvofiq, muallif tomonidan tayorlangan.



yechimlarni joriy etish hisoblanib bunga misol sifatida raqamli soliq tizimi soliq to'lovchilar uchun deklaratsiya topshirishni osonlashtiradi, xatolarni kamaytiradi va umuman soliq tizimining samaradorligini oshiradi. Soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirishning asosiy strategiyalaridan biri texnologiyaga asoslangan yechimlarni qabul qilishdir. So'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish tendentsiyasi kuchaymoqda. Masalan, raqamli soliq to'lash tizimi soliq to'lovchilar va soliq organlari uchun soliq deklaratsiyasini topshirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin. Raqamli tizim yordamida soliq to'lovchilar o'z deklaratsiyasini onlayn tarzda topshirish kabi qulayliklarga ega bo'ladilar, bu esa qo'lda ishlov berish natijasida yuzaga keladigan xatolar va kechikishlar ehtimolini kamaytiradi. Bundan tashqari, raqamli tizim soliq organlariga deklaratsiyalarni tezroq qayta ishlash imkonini beradi, bu esa pulni qaytarish yoki deklaratsiyalarni so'rash uchun ketadigan vaqtni qisqartiradi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan samarali islohatlar hamda soliq ma'murchiligini yanada isloh qilish yuzasidan bugungi kunda soliq tizimi "Soliq-ko'makchi" tamoyili asosida yuqori texnologiyali tashkilotlarga transformatsiya qilish amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunga kelib 41 ta avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etildi va muvaffaqiyatli ishlamoqda shu jumladan "Avtokameral", "Taxlika-Taxlil" AAT, Tax Gap, EXF, онлайн НКМ, "E-Ijara", "Cashback", "Soliq" mobil ilovasi, MXIK, raqamli markirovkalash va boshqalarni olishimiz mumkin. Soliq xisobotlarini avtomatlashtirishimiz natijasida xisobotlarni ixtiyoriy taqdim etish ko'rsatkichi 2022 yil oxiriga kelib 99% ni tashkil etdi². 2022 yilda rasmiylashtirilgan elektron xisob fakturalar soni 38,1 mingtani tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 13% ga ko'paygan va ularga aks ettirilgan tovarlar aylanmasi 1402,7 trln so'm bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 22% ga oshgan.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning yana bir strategiyasi soliq kodeksini soddalashtirish orqali erishilishi mumkin. Soliq kodeksi haddan tashqari murakkab bo'lsa, soliq to'lovchilar xatolarga yo'l qo'yishi yoki soliq kodeksida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilmaslik ehtimoli ko'proq bo'lib, tizimdagi nomuvofiqliklar va samarasizliklarga olib keladi. Soliq kodeksini soddalashtirish soliq to'lovchilarga o'z majburiyatlarini tushunishni osonlashtiradi va umumiy boshqaruv jarayonini tartibga solishga yordam beradi.

² O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti ma'lumotlariga asoslangan:

<http://www.soliq.uz> ma'lumotlari



Bundan tashqari, samarali soliq ma'muriyatchiligi uchun soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi aloqani yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Soliq to'lovchilarga aniq yo'l-yo'riq ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash xatolar yuzaga kelishini kamaytirishga, muvofiqlik stavkalarini yaxshilashga va natijada tizimni yanada samarali qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligini rivojlantirish va mamlakat budjetiga samarali soliq tushumlarini yo'naltirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim, bularga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin;

- Soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotini o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini oshirish

- Soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan soliq mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish

- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta'minlash bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish

- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish

- Soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish

- Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuqori ma'naviyaxloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini rivojlantirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirilmoqda, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi,



davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi.

Davlat boshqaruv tizimida soliq ma'murchiligini islohi milliy soliq tizimini "davlatning fiskal maqsadlari va samarali soliq dastaklari o'zaro mutanosib va uyg'un amal qilishi"ni ta'minlagan holda mukammallashtirish, soliqqa tortish amaliyotida hamkorlikda o'sishga erishishni ta'minlashning soliq holatini joriy etishga qaratilgan soliq organlari va soliq to'lovchilar manfaatlari mushtarakligini ta'minlash orqali investitsion faollik hamda soliq tushumlari o'sishi istiqbollarini ta'minlashga qaratilmog'i lozim.